

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti p.f.b.f.d., (PhD) Davronova Fotima Pirnazarovna tomonidan 60710200 - Biotexnologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 102-guruh talabalariga Ingliz tili fanidan "Shopping" mavzusida tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasiga**

### **TAQRIZ**

F.P.Davronova tomonidan Biotexnologiya ta'lim yo'nalishi I bosqich 102-guruh talabalariga ingliz tili fanidan "Shopping" mavzusida amaliy mashg'ulot ishlanmasi tayyorlangan.

Amaliy mashg'ulot ishlanmasi Biotexnologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'quv dasturi va ishchi dastur rejasiga mos keladi.

Amaliy mashg'ulot ishlanmasi uslubiy jihatdan to'g'ri yozilgan, unda mavzuga oid bo'lgan barcha ma'lumotlar to'liq yoritilgan. Bundan tashqari amaliy mashg'ulot ishlanmasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan bo'lib, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, matnning oxirida nazorat va test savollar berilgan.

Ingliz tilini o'qitishning davlat ta'lim standarti (CEFR) bo'yicha to'rtta kunikmalar: 1. Listening (tinglab tushunish), 2. Reading (o'qish), 3. Speaking (gapirish), 4. Writing (yozish) asosida tayyorlangan qiziqarli topshiriqlardan juda samarali ravishda foydalanish maqsad qilib qo'yilgan.

F.P.Davronova dars davomida o'zining chuqur bilimini, pedagogik mahoratini ishga solib darsning mazmunini talabalarga yetkazib berishni maqsad qilgan. Dars davomida axborot texnologiyalaridan va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqilganligi ochiq amaliy darsini samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, F.P.Davronova tomonidan o'tkazilishi rejalashtirilgan ochiq amaliy mashg'ulot darsi ishlanmasi uslubiy jihatdan to'g'ri yozilgan. U o'zining mazmun va mohiyati, amaliy masalalarning yoritilishi bilan bugungi kun talabiga to'liq javob beradi va o'qituvchi tajribasini ommalashtirishni tavsiya qilaman.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar  
kafedrasi dotsenti v.v.b., (PhD)**

ning imzosini

**TASDIQLAYMAN**  
D. Yunusova,  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Xorijiy tillar bo'limi boshlig'i